

FARG'ONADA YIL YAKUNIGA QADAR MAKTABGACHA TA'LIM QAMROVI 86 FOIZGA YETADI

Farg'ona viloyatida 2021 yilda 3165 ta maktabgacha ta'lism tashkilotlari faoliyat olib borgan bo'lsa, bu ko'rsatkich joriy yilda 3234 tani tashkil etdi. Ularning 893 tasi davlat, 106 tasi davlat-xususiy sherikligi asosidagi bog'chalar bo'lsa, qolganlari xususiy va oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lism tashkilotlaridan iborat.

Viloyatda mavjud 303 600 nafardan ortiq maktabgacha yoshdagi bolalarning 243 060 nafardan ziyodi maktabgacha ta'limga qamrab olingan. 2021 yilda Farg'ona viloyatida maktabgacha ta'lism qamrovi 83,6 foizga yetgan bo'lsa, joriy yil yakuniga qadar qamrov ko'rsatkichi 86 foizga yetkazilishi maqsad qilingan. Buning uchun zarur chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bolajonlarga qulaylik yaratish maqsadida joriy yilda investitsiya dasturi doirasida 16 ta va "Obod qishloq" va "Obod mahalla" davlat dasturlari doirasida 17 ta, jami 33 ta maktabgacha ta'lism tashkilotlarida qurilish-ta'mirlash ishlari olib borilishi belgilangan. Bu ishlar uchun jami 108,1 mlrd.so'm mablag' sarflanishi ko'zda tutilgan.

Yil yakuniga qadar Farg'ona tumani "Yangi O'zbekiston" massivida 3 ta, Yozyovon tumani "Yangi O'zbekiston" massivida 1 ta va Farg'ona shahridagi "Mustaqilik shaharchasi"da 1 ta hamda Farg'ona shahri "Surxtepa" va "Oqariq" MFYlarda 1 tadan yangi maktabgacha ta'lism tashkilotlari qurilishi rejalashtirilgan.

Bundan tashqari, So'x tumani "Chashma" MFYda 300 o'ringa ega davlat maktabgacha ta'lism tashkiloti qurilish ishlarini tashkil etish bo'yicha dastlabki loyiha oldi hujjatlari tayyorlandi.



[**Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating**](#)

[Facebook](#), [Telegram](#), [Facebook](#), [YouTube](#), [Instagram](#)

2022-08-02 11:39:07